

**Abdullayeva Xurshidaxon Ne'matjonovna**

Andijon davlat universtiteti tadqiqotchisi

[Khurshidakhon.abdullayeva.86@gmail.ru](mailto:Khurshidakhon.abdullayeva.86@gmail.ru)

---

## **INGLIZ HAMDA O'ZBEK ERTAKLARIDA MAXLUQLAR VA ULAR YASHAYDIGAN G'AROYIB JOYLAR IFODASI**

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek hamda ingliz sehrli ertaklarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni ularning syujet tarkibi, voqealar rivoji, obrazlarning differensial va analogik jihatlari keng tahlil qilingan. Asosan ikki xalq sehrli ertaklarida sehrli maxluqlar va ularning yashaydigan g'aroyib joylari haqida keng comparative tahlil qilingan va ularga ikki xalq sehrli ertaklaridan syujetlar mazmuni keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Pari, dev, ajdarho, yalmog'iz, mifologik obrazlar, personaj, Yuliy sezar.

**Anotation:** In this article, the unique features of Uzbek and English magical fairy tales, their plot structure, events development, differential and analogical aspects of images are extensively analyzed. Mainly, in the magic tales of two countries, a wide comparative analysis of magical creatures and the strange places they inhabit is analyzed, and the contents of the plots from the magic tales of the two peoples are presented.

**Key words:** Fairy, giant, dragon, dwarf, mythological characters, character, Julius Caesar.

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируются своеобразие узбекских и английских волшебных сказок, их сюжетная структура, развитие событий, дифференциальный и аналогичный аспекты образов. В основном в волшебных сказках двух стран анализируется широкий сравнительный анализ волшебных существ и странных мест, где они обитают, а также представлено содержание сюжетов из волшебных сказок двух народов.

**Ключевые слова:** Фея, великан, дракон, карлик, мифологические персонажи, персонаж, Юлий Цезарь.

---

Pari, dev, ajdarho, yalmog'iz singari mifologik obrazlar vositasida ham sehrli ertaklar tabiati belgilanadi. Bu jihatdan sehrli ertaklar obrazlar tizimi kelib chiqishi qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bevosita bog'liqligi ravshanlashadi. Ularda yuqorida nomi ko'rsatilgan asotiriy personajlar o'z o'rniga ega. Bu xil obrazlar sehrli ertaklarning badiiy strukturasi qahramoniga yordam beruvchi epik ko'makchi,<sup>1</sup> homiy-personaj, unga dushmanlik qiluvchi raqib-personaj, turli tilsim buyumlarni hadya etuvchi epik homiy kabi vazifalarda tasvirlanadi.

Ertaklardagi mifologik obrazlarning kelib chiqishi va badiiyati masalasi folklorshunoslikda maxsus tadqiq qilingan.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Ахмедова С.Х. Инглиз ва ўзбек фольклорида эпик кўмакчи: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2022.

<sup>2</sup> Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф.- Тошкент, 1996; Жуманиёзов Б.М. Ўзбек

Inglizlarning “Tom Tit Tot” ertagida Tom Tit Tot nomli uzun dumli kichkinagina qora maxluqcha obrazi yetakchi obrazlardan biri sifatida tasvirlangani uchun ertak ham uning nomi bilan atalgan. U ochko‘z, dangasa, qirol xotin qilib olgan qizga kalava yigirib beradi. Buning uchun qiz uning ismini topishi shart hisoblanadi. Qiz bu maxluqning ismi Tom Tit Tom ekanini topadi. Maxluq qizdan o‘z ismini eshitishi bilanoq, yoqimsiz chiyillab, qorong‘ulik tomon uchib ketibdi va qiz uni hech qachon qayta ko‘rmabdi.

“Nix Nought Nothing” – “Hech nima” nomli ertagida farzandi tug‘ilgani va uning ismi nima ekanidan xabari yo‘q qirol yo‘lida uchrab, o‘ziga yordam ko‘rsatgan Devga (maxluqqa) u so‘ragan “Hech nima”ni berishga rozi bo‘ladi. Biroq bu o‘z farzandi ekanini bilgach, devni laqillatmoqchi bo‘ladi. Ammo qirol baribir o‘g‘lini berishga majbur bo‘ladi. Ertak so‘nggida shahzoda mana shu bahaybat maxluqning qiziga o‘ziga ko‘rsatgan yordamlari evaziga uylanadi. Ular baxtli bo‘ladi.

“Molli Vuppi” ertagida Molli Vuppi ismli jasoratli qiz ulkan maxluqning qilichi, hamyoni, uzugini bir qirol shartiga ko‘ra borib olib keladi. Buning evaziga qirolning ikki o‘g‘li uning ikki opasiga uylanadi. O‘zi esa kenja shahzodaga turmushga chiqadi.

“Jek va loviya poyasi” ertagida Jek sigirini yo‘lida uchragan bir notanish kishining uch dona loviya urug‘iga almashtiradi. Bu sirli loviya urug‘idan o‘sib chiqqan pillapoya orqali Jek bir odamxo‘r maxluq manziliga borib qoladi. U yerdagi ayoldan yegulik so‘raydi. Ayol esa: “Mening erim odamxo‘r. U qo‘rada pishirilgan bolalarni juda yaxshi ko‘radi. U hozir kelib qoladi, bu yerdan tezroq ketaqol”, – debdi. Ammo Jek qo‘rqmabdi. Dev kelibdi. Jek undan oltin qutini, oltin tuxum qo‘yadigan tovuqni, kuylaydigan va gapiradigan oltin chiltorini olib qo‘yib, onasi bilan baxtli va to‘kin hayotga erishibdi.

“Xaloskor Jek” ertagida Qirol Artur hukmdorligi ostida Angliyaning bir chetida joylashgan Kornvel yurtida bir dehqonning yolg‘iz o‘g‘li Jek Kornvel tog‘idagi balandligi o‘n sakkiz, bel aylanasi uch yard keladigan vahshiy Kormoran ismli maxluq bilan kurashib, xalqni ozod etishi hikoya qilingan. Bu maxluq qo‘shni shahar va qishloqlarga ham xavf solar ekan. U tog‘ning o‘rtasidagi g‘orda yashar, xohlagan vaqtda odamlar ustiga bostirib kelaverar, yo‘lidan uchragan hamma narsani vayron qilaverar ekan. Uning yaqinlashayotganligini eshitganlar uylariga yashirinishar, bu vaqtda maxluq chorvalarni egallab olar, buqalarni yelkasiga ortsa, qo‘y va qo‘chqorlarni beliga marjondek tizib olar ekan. Kornvel bu maxluqning yovuzliklari tufayli umidsizlikka tushib qolgan ekan.

“Qizil maxluq” (“Red Ettin”) ertagi boshlanishida Red Ettin irlandiyalik ekani, Shotlandiyaning odil qiroli Malkolmning qizini o‘g‘irlagani, har kuni malikani bog‘lab qo‘yib, kumushrang xivchin bilan uni urishi, rimlik Yuliy sezar kabi hech kimdan qo‘rqmasligi, bir bashoratda aytilganidek, uni o‘ldiradigan inson hali tug‘ilmagani ta’kidlanadi.

---

халқ эпосида ялмоғиз образи: Филол. фанлари номз. дисс. автореф.- Тошкент, 1996; Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фанлари номз. дисс. автореф.- Тошкент, 1999; Файзиева Д.О. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти): Филол. фанлари номз. дисс. автореф. - Тошкент, 2004.

Maxluqlar sehrli ertaklarda asosan salbiy qahramon bo'lib tasvirlanadi. Ular odatda odamlar bilan jang qiladilar. Ammo ba'zan "Qiron ota"<sup>3</sup> sehrli ertagida bo'lgani kabi aks syujet ko'rinishi ham kuzatiladi. Podshohning o'g'lining sevgan yorini ot qiyofasiga kirgan devlar olib qochib ketib, Qiron ota yordamida bir qayrag'och tagida buloq, buloq ichida semiz qurt bo'lib, uni baliq yeydi. So'ngra baliqlar o'ladi. Baliq ichidan ikkita kapalak chiqadi. Osha kapalaklar ichida devlarning joni borligini aniqlab, devlarni yengadi va ularni asir qilib oladi. Hatto ular yashaydigan oq toshli oq gumbazga ega bo'ladilar.

"Cho'pon yigit"<sup>4</sup> ertagida ajdarning do'stlik va xalq olqishi oldida qalbi yumshab, yovuzlikdan voz kechgani tasvirlanadi. Ajdar cho'pon yigitning qo'ylarini yemoqchi bo'libdi. Ammo yigit bir mushkulini hal qilib bersa, hamma qo'ylarini berishga roziligini bildiribdi. Yigit aytgan ish – qoya toshi to'sib suvi yurmay qo'ygan chashmani ochish edi. Ajdar suvni ochib beribdi va xalq cho'pon yigitning aqlini va ajdarning xizmatini olqishlabdi. Ajdar esa ko'ngli yumshab, bu qishloq aholisi bilan do'st bo'libdi.

Frederick John Norton "A dictionary of British folk-tales in the English language, incorporating the F.J. Norton collection" deb nomlangan kitobida Aarne Tomson katalogini shunday ta'snif qiladi: "AT katalogidagi "G'ayritabiiy raqiblar (Supernatural adversaries)" qismida sehrli ertaklar jamlangan bo'lib, ular "St George and Dragon", "Jack the Giant Killer", "Malie Whoopie" kabi va boshqa g'ayrioddiy qahramonlarning ishtiroki keltirilgan epik asarlardir. Bunda o'xshash motiv turlari bo'yicha "G'ayritabiiy er yoki xotin" (Supernatural husband or wife ) yo'nalishi mavjud bo'lib, undan "Black Bull of Norway", "Night Nought Nothing", "Jack and Puddock", "Allison Gross" ertaklari o'rin olgan.

"G'ayritabiiy vazifalar" (Supernatural tasks) qismida turli xil yanada qiziqarli ingliz ertaklari keltirilgan. Masalan: "The Spinning Woman at the well", "The Glass Ball", "The three Heads in the Well", "The Green Lady", "The Monk and The Bird" kabi. Bundan tashqari, "G'ayritabiiy yordamchilar" (Supernatural helpers) deb nomlangan bo'libda ham Britaniya ertaklaridan Sindrella motivi ostidagi turli xil ko'plab variantlar uchraydi. Yana bir yordamchi obrazlar sifatida ishtirok etuvchi "Sehrli buyumlar" (The magical objects) bo'limida ham juda ko'p sehrli ertaklar, jumladan, "The Ass and Table and Stick", "Fortunatus" (The Three Magic Objects) ertagi badiiy variant sifatida uchraydi. Ushbu variant XVIII-XIX asrlarga kelib axloqiy ta'sirchanligi tufayli juda mashhur bo'lgan ingliz ertaklaridan hisoblanadi.

"G'ayritabiiy kuch va bilim (supernatural power and knowledge)" yo'nalishidagi "Tom Hickathrift" (yana bir nomi "Three Doctors") kabi sehrli ertaklar ham o'z o'rniga ega.

Turli motivlarga asoslangan, ammo sehrli syujet va obrazlar asosida tashkil topgan "G'ayritabiiy boshqa xildagi turlar" (The other tales of supernatural) ertaklardan uchta dunyoga mashhuri "Tom Thumb", "The rose tree" va "The Oldest on the farm" ertaklaridir.

Xulosa sifatida ko'rinadiki, ingliz sehrli ertaklarida maxluq obrazi bilan bog'liq insonning maxluqqa aylantirilishi, maxluqning insonni biror narsaga aylantirishi, ikki yoki uch boshli

<sup>3</sup> Qiron ota // Namangan ertaklari. Aytuvchi: Abdulla buva Madamonov. Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani, Yangiobod jamoa ho'jaligi. – 176 b.

<sup>4</sup> Cho'pon yigit // Namangan ertaklari. Aytuvchi: Umarov Murodali (1957-yil). Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani Qo'rg'oncha MFY. Yozib oluvchi: Abdullajonova Shahrizoda.

maxluq o‘z asriga topishmoqlar berishi motivlari, odamxo‘r, katta (gigant) yoki kichik, soqolli, qora tusli maxluq obrazlari uchraydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmedova S.H. Ingliz va o‘zbek folklorida epik ko‘makchi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Buxoro, 2022.

2. Eshonqulov J.S. O‘zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref.- Toshkent, 1996;

3. Jumaniyozov B.M. O‘zbek xalq eposida yalmog‘iz obrazi: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref.- Toshkent, 1996; Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazi (genezisi va poetikasi): Filol. fanlari nomz. diss. avtoref.- Toshkent, 1999;

4. Fayziyeva D.O. O‘zbek folklorida ilon obrazi (genezisi va badiiyati): Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. - Toshkent, 2004.

5. A dictionary of British folk-tales in the English language, incorporating the F. J. Norton collection By Briggs, Katharine Mary. cn; Norton, F.J. (Frederick John). 1970.

6. Qiron ota // Namangan ertaklari. Aytuvchi: Abdulla buva Madamonov. Namangan viloyati, Uchqo‘rgon tumani, Yangiobod jamoa ho‘jaligi. – 176 b.

7. Cho‘pon yigit // Namangan ertaklari. Aytuvchi: Umarov Murodali (1957-yil). Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumani Qo‘rg‘oncha MFY. Yozib oluvchi: Abdullajonova Shahrizoda.